
TA'LIM - TARBIYA SIFATINI OSHIRISH MAQSADIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR MUHOKAMA QILINDI

Bugun Quvasoy shahridagi axborot-kutubxona markazida ta'lim-tarbiya sifatini oshirish maqsadida shahardagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan ishlar muhokamasiga bag'ishlangan ochiq muloqot tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari hamda mas'ul xodimlari taklif etilgan tadbirni shahar Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri Eldor Qo'ziyev ochib berdi.

Ochiq muloqotda ta'lim maskanlarida o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar tahlil qilindi. Ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, bu maqsadda yana bir bor har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti aniq chora-tadbirlarni belgilab olishi zarurligi qayd etildi. Oldinda turgan vazifalar kelishib olindi.

Ma'lumot o'rnida, Quvasoy shahrida 22 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-03-13 18:53:14